

O‘zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo‘mitasining
2019 yil 28 iyundagi 34-son qaroriga ILOVA

**NOMOLIYAVIY AKTIVLARGA INVESTITSİYALAR
UMUMIY HAJMINI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA
USLUBIY NIZOM**

Ushbu uslubiy nizom investitsiya faoliyati ko‘rsatkichlarining statistik hisobini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar hajmi to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlarni shakllantirish tartibini belgilab beradi.

Uslubiy nizomni tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, Milliy hisoblar tizimi – 2008 ta‘riflaridan foydalanildi.

Mazkur uslubiy nizom davlat statistika organlari tomonidan nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalarning umumiy hajmlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni shakllantirishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

1- BOB Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta‘riflar qo‘llaniladi:

nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar – bu real mablag‘larni yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalar (kapitalni shakllantiruvchi investitsiyalar);

asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi;

to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – umumiy kapitalda 10 foizdan kam bo‘lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo‘yilmalaridir;

o‘stiriladigan (ekiladigan) aktivlar – mahsulot olish maqsadida ko‘p martalik foydalaniladigan zotdor, mahsuldor, ishchi qoramaollar, bog‘lar va boshqa ekinlar;

intellektual mulkchilik mahsulotlari – o‘zining ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilariga daromad keltiradigan, sotilishi mumkin bo‘lgan tadqiqotlar, ishlanmalar, innovatsiyalar natijasidir;

asosiy vositalarni kapital ta‘mirlashga investitsiyalarga uskunalar, mashinalar, transport vositalarini (bunda asosan, agregatni to‘liq qismlarga ajratish, eskirgan barcha qism va uzellarni almashtirish yoki tiklash, asosiy detal va qismlarni ta‘mirlash, agregatni yig‘ish, sozlash va sinab ko‘rish ishlari), bino va inshootlarni (eskirgan konstruksiya va detallarni almashtirish yoki ularni ta‘mirlanayotgan obyektning foydalanish imkoniyatini oshiruvchi, yanada mustahkam va tejamkorlariga almashtirish) kapital ta‘mirlashlarni o‘z ichiga oladi;

ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar – yuridik shaxslar tomonidan yer uchastkalari, tabiatdan foydalanish obyektlarini; shartnomalar, ijara

shartnomalari, litsenziyalarni (tabiat obyektlaridan foydalanish huquqini qo'shgan holda), ishchanlik obro'si va aloqalarini sotib olishga xarajatlar;

ishlab chiqarilmagan aktivlarga mulkchilik huquqini o'tkazib berish bo'yicha xarajatlar – aktivlarni sotib olish va berib yuborish yoki mulkchilik huquqining o'zgarishi bilan bog'liq barcha xarajatlar. Mulkchilik huquqi o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- aktivlarni sotib olgan shaxs hamda ularni sotgan shaxs tomonidan amalga oshirilgan professional xizmatlarga yoki komission to'lovlarning barchasi; ularga huquqshunos, arxitektor, yer o'lchovchi, injener va baholovchilarga gonorarlar, shuningdek, auksion o'tkazuvchi va ko'chmas mulk agentlariga komission to'lovlar kiradi;

- sotib oluvchiga taqdim etilgan, hisob-fakturasida alohida ko'rsatilgan har qanday savdo va transport xarajatlari;

- aktivni sotib olgan shaxsning aktivga mulkchilik huquqini o'tishi bilan bog'liq barcha soliqlar;

- olinayotgan yoki berilayotgan aktivning qiymatiga kiritilmagan yetkazib berish, o'rnatish yoki buzish bilan bog'liq har qanday xarajatlar;

- aktiv mavjud bo'lgan davrning so'ngida amalga oshirilgan har qanday yakuniy xarajatlar, misol uchun, aktiv joylashgan joyda atrof muhitni muhofaza qilish yoki inshootni xavfsizligini ta'minlash uchun xarajatlar;

ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar – tabiiy resurslar, ijara va litsenziya kelishuvlari, shartnomalari, gudvil va marketing aktivlari.

2- BOB Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar hajmlarining statistik hisobi

2. Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar hajmiga iqtisodiy faoliyatning barcha turlaridagi yuridik shaxslar o'zlashtirgan investitsiyalar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan turar joy va noturar joy obyektlar qurilishida o'zlashtirilgan investitsiyalari, yirik shoxli qoramol, qo'y, echki, tuya, ot, cho'chqa va ko'p yillik o'simliklarni sotib olishga xarajatlari kiradi.

3. Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

4. Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar bo'yicha statistik ma'lumot quyidagi investitsiyalar bo'yicha guruhlanadi:

- a) asosiy kapitalga;
- b) asosiy vositalarni kapital ta'mirlashga;
- v) ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga.

5. Statistik tahlilni o'tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha.

6. Asosiy kapitalga investitsiyalar qo'yilmalar turlari bo'yicha quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

a) turar joy binolari qurilishi;

b) noturar bino va inshootlar qurilishi;

v) mashinalar, transport vositalari, uskunalar (montaj qilish xarajatlarini, qurollanish tizimini qo'shgan holda), asboblarni, inventarlarni sotib olish;

g) qo'yilmalarning boshqa turlari (o'stiriladigan biologik resurslar sotib olinishi, ishlab chiqarilmagan aktivlarga mulkchilik huquqini o'tkazib berish bo'yicha xarajatlar, intellektual mulk mahsulotlarini qo'shgan holda).

7. Asosiy kapitalga investitsiyalar texnologik tarkibi bo'yicha quyidagi ishlar va xarajatlar qiymati bo'yicha ajratiladi:

a) qurilish ishlarining barcha turlari va uskunalarini montaj qilish ishlariga;

b) qurilish qiymatiga kiritilgan uskunalar (montaj talab qiladigan va qilmaydigan), asboblarni, inventarlarni (qurilish qiymatiga kiradigan va kirmaydigan), qurilish qiymatiga kirmaydigan va qurilishga aloqador bo'lmagan mashina va uskunalar sotib olishga;

v) boshqa kapital ishlar va xarajatlarga.

8. Asosiy kapitalga investitsiyalar asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

a) yangi qurilish;

v) kengaytirish (yillik hisobotda alohida yo'nalish), rekonstruksiya, texnik va texnologik qayta jihozlash, modernizatsiyalash;

g) boshqa yo'nalishlar.

9. Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichiga asosan taqsimlanadi.

10. Moliyalashtirish manbalariga ko'ra investitsiyalar markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarga ajratiladi.

11. MHT – 2008 tavsiyalari asosida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar asosiy fondlar tasniflagichi bo'yicha guruhlariga ajratiladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi 2-ilovada keltirilgan.

(Mazkur band Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 25 noyabrdagi 49- son qarori bilan qo'shilgan)

3- BOB Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar hisobini yuritishning ma'lumotlar manbalari

12. Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalarning umumiy hajmi quyidagi ma'lumotlar asosida shakllanadi:

a) rasmiy sektorda – iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar bo‘yicha;

b) uy xo‘jaliklari faoliyati – yakka tartibdagi uy-joy va noturar joy obyektlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchilar faoliyati bo‘yicha, shunindek, mahsulotlarni muntazam mahsulot beradigan hayvonlarni, daraxtlarni, ekinlarni sotib olish xarajatlari.

13. Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni shakllantirish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

a) investitsiya faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari;

b) kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining tanlanma kuzatuv natijalari;

v) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi bo‘yicha Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalarining statistika hisobotlari;

g) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma’lumotlari.

(Mazkur bandga Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 25 noyabrdaqi 49- son qarori bilan o‘zgartirish kiritilgan)

14. Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar bo‘yicha asosiy statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish sxemasi 1- ilovada keltirilgan.

4- BOB Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalarning umumiy hajmini shakllantirish

15. Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalarning umumiy hajmi to‘g‘risida yilda bir marta aniq ma’lumotlar quyidagi statistika hisoboti va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi:

a) 1- invest (asosiy) shakli “Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to‘g‘risida hisobot” - barcha iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, qurilish xo‘jalik boshqaruvi organlarini qo‘shgan holda (kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo‘jaliklardan, notijorat tashkilotlardan tashqari) taqdim etadilar;

b) 1- kb shakli “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” – barcha mulkchilik shaklidagi mikrofirma va kichik korxonalar taqdim etadilar;

v) 1- fx shakli “Fermer xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot” – Fermer xo‘jaliklari taqdim etadilar;

g) 1- notijorat shakli “Notijorat tashkilotining faoliyati to‘g‘risida hisobot” – Notijorat tashkilotlari (jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari (XUJMSH) dan tashqari) taqdim etadilar;

d) 1- nnt shakli “Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to‘g‘risida hisobot” – Jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari taqdim etadilar;

e) 1- qurilish (jismoniy) shakli “Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda qurilgan turar joylarni va noturar binolarni foydalanishga topshirish to‘g‘risida hisobot” – Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari taqdim etadilar;

j) 2- dx shakli “Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risida hisobot” – Mahallalar fuqarolar yig‘inlari taqdim etadilar;

z) 1- tj so‘rovnomasi “Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joyni tanlama kuzatuv so‘rovnomasi” – statistika organlari tomonidan o‘tkaziladigan kuzatuv;

i) 5- bozor narxlar blankasi “Dehqon bozorlarida narxlarni ro‘yxatga olish blankasi” – statistika organlari tomonidan o‘tkaziladigan kuzatuv.

16. Yuridik shaxslar investitsiyalarining umumiy hajmi 1-invest, 1-kb, 1-fx, 1-notijorat va 1-nnt statistika hisobotlarining tegishli satrlarida aks ettirilgan nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘indisi sifatida shakllantiriladi:

$$I_{yur} = I_{2-invest} + I_{1-KB} + I_{1-FX} + I_{1-notijorat} + I_{1-NNT}$$

(15 va 16 bandlarga Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 25 noyabrda 49- son qarori bilan o‘zgartirish kiritilgan)

17. Shakllantirilgan hajmlar quyidagicha guruhlariga ajratiladi.

Hududlar bo‘yicha – investitsiya obyekti joylashgan manzil bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy hududiy tuzilmalarni (obyektlarni) belgilash tizimiga (MHOBT) muvofiq;

Mulkchilik shakllari bo‘yicha – mulkchilik shakllari tasniflagichiga (MShT) muvofiq;

Vazirlik va idoralar bo‘yicha – davlat va xo‘jalik boshqaruvi va idoralarni belgilash tizimi (DBIBT) bo‘yicha;

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha – investitsiya obyektini mo‘ljallangan vazifasi bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT, 2-tahrir) ga muvofiq.

18. 1- qurilish (jismoniy) statistika hisoboti ma’lumotlari asosida jismoniy shaxslar tomonidan noturarjoy qurilishiga xarajatlar I_{ChS} aniqlanadi. Shunindek, mazkur shakl ma’lumotlari asosida jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan yakka tartibdagi turar-joylar umumiy maydoni aniqlanadi. Mazkur maydon qiymatini aniqlash uchun jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan uylarning 1 kv.m maydoni qiymatiga ko‘paytiriladi. Jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan turar-joylarning 1 kv.m maydoni qiymati Davlat statistika qo‘mitasining 1-son qarori bilan tasdiqlangan (22.06.2016- y. 7-son va 26.01.2018- y. 2-son qaror bilan o‘zgartirishlar kiritilgan) “Yakka tartibdagi uy – joy va hovli hududi xo‘jalik qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom” asosida amalga oshiriladi.

$$I_{IJS} = S_j + P_j$$

Bu yerda

S_j – jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan turar-joylarning umumiy maydoni;

P_j – jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan turar-joylarning 1 kv.m qiymati.

(Mazkur bandga Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 25 noyabrdagi 49- son qarori bilan o‘zgartirish kiritilgan)

19. Uy xo‘jaliklarining: daraxt, qishloq xo‘jaligi ekinlari, qoramollarga xarajatlari 1- dx statistika hisoboti va bozorlardagi narx kuzatuv 1 - bozor ma’lumotlari asosida hisoblanadi. 1- dx shakli ma’lumotlari asosida chiqib ketganlarini hisobga olgan holda ekilgan mevazor va rezavorlar, uzumzor hamda tutzorlar maydoni shakllantiriladi:

$$S_{ekin} = S_{ekinzor} - S_{ekino'tgan}$$

Bu yerda

S_{ekin} - yangidan tashkil etilgan mevazor va rezavorlar, uzumzor va tutzorlar maydoni;

$S_{ekinzor}$ - joriy davrdagi mevazor va rezavorlar, uzumzor va tutzorlar maydoni;

$S_{ekino'tgan}$ - o‘tgan davrdagi mevazor va rezavorlar, uzumzor va tutzorlar maydoni.

Joriy davrda sotib olingan mevazor va rezavor, uzumzor va tutzor ekinlari qiymati, har bir ko‘chat turining narxi hamda xar bir gektarga ekilgan ko‘chatlar sonidan kelib chiqib hisoblanadi:

$$I_{ekin} = S_{ekin} / K \times P_{ekin}$$

I_{ekin} – uy xo‘jaliklarining daraxt, qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun xarajatlari;

S_{ekin} - yangidan tashkil etilgan mevazor va rezavorlar, uzumzor va tutzorlar maydoni;

K – har bir gektarga ekilishi tavsiya etiladigan ko‘chatlar soni (R.R. Shreder nomidagi ilmiy tadqiqot Markazi tavsiyasi);

P_{ekin} – dehqon bozorlari kuzatuv bo‘yicha bir dona ko‘chatning narxi.

(Mazkur bandga Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 25 noyabrdagi 49- son qarori bilan o‘zgartirish kiritilgan)

20. 1- dx shakli asosida yirik shoxli qoramol, qo‘y, echki, ot, tuya, cho‘chqaning bosh soni aniqlanadi. Yashash umrining muddatidan kelib chiqadigan maxsus koeffitsiyent vositasida asosiy kapital jamg‘armasi sifatida hisoblanadigan jonvorlar soni aniqlanadi. Olingan ma’lumotlar dehqon bozorlari kuzatuv (5- bozor) natijasida olingan narxlarga ko‘paytirilgan holda uy xo‘jaliklarini jonvorlar sotib olishga jami xarajatlari hisoblanadi:

$$I_{jon} = Q_{yshq} \times K_1 \times P_1 + Q_{qe} \times K_2 \times P_2 + Q_{ot} \times K_3 \times P_3 + Q_{tuya} \times K_4 \times P_4 + Q_{cho'chqa} \times K_5 \times P_5$$

Bu yerda

I_{jon} – uy xo‘jaliklari jonvorlarini sotib olishga xarajatlari;

Q_{yshq} – yirik shoxli qoramollar soni;

Q_{qe} – qo‘y va echkilar soni;

Q_{ot} - otlar soni;

Q_{tuya} – tuyalar soni;

$Q_{cho'chqa}$ - cho‘chqalar soni;

$K_{1..5}$ – asosiy kapital yangilanishini bildiruvchi har bir jonvorning o‘rtacha umridan kelib chiqadigan koeffitsiyent;

$P_{1..5}$ - har bir jonvor turi bo‘yicha narx.

(Mazkur bandga Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 25 noyabrdagi 49- son qarori bilan o‘zgartirish kiritilgan)

21. Yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun mashina, uskuna, qishloq xo‘jaligi texnikasi, transport vositasi sotib olishga xarajatlar, yuklab jo‘natilgan sanoat mahsulotlari, asosiy tovar guruhlari bo‘yicha import hajmi (tashqi savdo statistikasi) va yengil avtomobillarni yakuniy iste‘mol uchun sotib olish bo‘yicha hisob-kitob ma‘lumotlari asosida baholanadi. Hisob-kitob quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$I_t = V_m + I_m - Inv_m - (V_a + I_a) \times T_u$$

V_m – mashina – uskuna, transport vositasi yuklab jo‘natildi (respublika ichida);

I_m - mashina – uskuna, transport vositasi importi;

Inv_m – yuridik shaxslar tomonidan mashina – uskuna, transport vositasiga investitsiyalar;

V_a - yengil avtomobillar yuklab jo‘natildi (respublika ichida);

I_a – yengil avtomobillar importi;

T_u - yakuniy iste‘mol uchun sotib olingan avtomobillar ulushi;

22. Yashirin va norasmiy sektorni hisobga olgan holda asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmi yuqorida hisoblangan barcha hajmlarni qo‘shib chiqish yo‘li bilan hisoblanadi:

$$I = I_{yur} + I_{ChS} + I_{IJS} + I_{ekin} + I_{jon} + I_t$$

5 - BOB Choraklik nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar hajmini shakllantirish

23. Har chorakda nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalarning umumiy hajmi tezkor tartibda yirik korxonalarning hisobot ma‘lumotlari asosida va boshqa yuridik shaxslar (investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kichik korxona va mikrofirmalar, fermer xo‘jaliklari, notijorat tashkilotlari) investitsiyalari hajmini hamda uy xo‘jaliklari faoliyatini (har bir kategoriya bo‘yicha alohida) baholash asosida hisoblanadi.

24. Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalarning choraklik hajmini tezkor baholash investitsiyalarning alohida guruhlari va korxonalar kategoriyalari bo‘yicha amalga oshiriladi.

25. Hisobot davridagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar, quyidagi bosqichlarda shakllantiriladi:

Birinchi bosqich – oxirgi yillik hisobot ma‘lumotlari asosida kichik korxona va mikrofirmalar uchun quyidagi formula asosida hajm shakllantiriladi:

$$I_{kb(1)} = I_{kb(pr)} / Q_{(n)} \times In_{(Qn)}$$

Bu yerda

$I_{kb(1)}$ – birinchi bosqich bo‘yicha hajm;

$I_{kb(pr)}$ – oxirgi yillik hisobot ma‘lumoti bo‘yicha hajm;

$Q_{(n)}$ - chorak ulushi: yanvar-mart uchun – 4, yanvar-iyun – 2, yanvar-sentabr – 4/3

$In_{(Qn)}$ - mos davr qimmatlashish indeksi.

Ikkinchi bosqich – kichik korxonalar va mikrofirmalar tanlanma kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlar birinchi bosqichda hisoblangan hajmlar bilan taqqoslanadi, zarur bo'lsa hajmlar tuzatiladi.

Uchinchi bosqich – 4-invest (asosiy) hisoboti asosida olingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar ikkinchi bosqich ma'lumotlari bilan taqqoslanadi, zarur bo'lsa hajmlar tuzatiladi.

Hisoblash uchun shartli namuna 3-ildavda keltirilgan.

(Mazkur bandga Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 25 noyabrdagi 49- son qarori bilan o'zgartirish kiritilgan)

26. Notijorat tashkilotlar, fermer xo'jaliklarining asosiy kapitalga investitsiyalari, uy xo'jaliklari tomonidan uzluksiz mahsulot keltiradigan jonivorlar, daraxtlar, qishloq xo'jaligi ekinlariga xarajatlar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna, qishloq xo'jaligi texnikasi, transport vositasi sotib olishga xarajatlarning choraklik hajmi, tezkor ravishda mazkur uslubiy Nizomning 24 bo'limida, birinchi bosqichda amalga oshiriladigan hisob-kitoblarga muvofiq aniqlanadi.

27. Uy xo'jaliklarining yakka tartibda uy-joy qurilishi va noturar joy obyektlari qurilishi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarining choraklik hajmi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018- yil 26- yanvardagi 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jaliklari qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq hisoblangan foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylar qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Bunda, o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi hisobot davrida foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni baholangan hajmi qiymatiga teng ravishda qabul qilinadi.

28. Har chorakda yakka tartibdagi noturar joy quruvchilarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi, Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlarining foydalanishga topshirilgan noturar joy obyektlarining qiymati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanib aniqlanadi. Bunda, o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi hisobot davrida foydalanishga topshirilgan noturar joylar qiymatiga teng ravishda qabul qilinadi.

(Mazkur bandga Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 25 noyabrdagi 49- son qarori bilan o'zgartirish kiritilgan)

29. Kapital ta'mirlash, ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga kichik tadbirkorlik subyektlari, notijorat tashkilotlar, fermer xo'jaliklarining investitsiyalari hajmi har chorakda yillik hisobotlarning tegishli ma'lumotlari asosida hisoblanadi, bunda hisoblash ushbu Uslubiy nizomning 24-bandida keltirilgan hisoblash usuliga o'xshab amalga oshiriladi.

6- BOB Asosiy kapitalga investitsiyalar fizik hajmi indeksini hisoblash

30. Investitsiyalarning taqqoslama dinamikasi o'zgarishlarini, korxona va tashkilotlarning investitsiya faoliyati natijalarining aks etishini tahlil qilish uchun nisbiy

ko'rsatkichdan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich, inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda taqqoslanayotgan davrlarda investitsiya hajmlari o'zgarishini tavsiflovchi asosiy kapitalga investitsiyalarning **fizik hajm indeksi** hisoblanadi.

31. Asosiy kapitalga investitsiyalarning fizik hajm indeksini hisoblash taqqoslanayotgan davrlarda qiyosiy narxlarga keltirilgan investitsiya hajmlarini taqqoslash yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$I_{f.o.} = (V_1 : V_o) : I_{defl} * 10000,$$

bu yerda

$I_{f.o}$ – fizik hajm indeksi, %;

V_1, V_o – tegishli ravishda hisobot davri va o'tgan yilning shu davriga amaldagi narxlarda investitsiyalarning hajmi;

I_{defl} – indeks-deflyator, %.

32. Yuridik shaxslarning asosiy kapitalga investitsiyalariga indeks deflyatori qurilish-montaj ishlari, mashina, uskuna va boshqa kapital ishlar hamda xarajatlarning asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmidagi muayyan ulushlari bo'yicha hisoblangan narx indekslarining umumlashtirilgan ko'rsatkichi sifatida hisoblanadi.

33. O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi yig'ma indeks-deflyator – yuridik va jismoniy shaxslarning asosiy kapitalga investitsiyalari hajmlarining o'rtacha umumlashtirilgan indeksini qo'llash orqali hisoblanadi.

Fizik hajm indeksini hisoblash jadvali 4-ildavda ko'rsatilgan.

Foydalanilgan ma'lumotlar manbalari:


1. O'zbekiston Respublikasining 2019- yil 25- dekabridagi O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 12- sentyabrdagi 395-son “Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.


3. Sistema natsionalnykh schetov 2008//Yevropeyskaya komissiya, Mejdunarodnyy valyutnyy fond, Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestvo i razvitiya, Organizatsiya ob’edenennykh natsiy, Vsemirnyy bank// Nyu-York 2012.

4. Rukovodstvo po platejnomu balansu i mejdunarodnoy investitsionnoy pozitsii. Shestoye izdaniye (RPB 6)// Vashington, Mejdunarodnyy valyutnyy fond, 2012.

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni shakllantirish sxemasi



Asosiy kapitalga investitsiyalar tarkiblari



* Yo'naltirilgan tarkib yillik hisobot asosida yiliga faqat bir marta shakllantiriladi.

** Yillik hisobotda alohida yo'nalish sifatida ko'riladi.

“Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini
shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga
3- ILOVA

		2018- yil uchun hisobot ma'lumotlari bo'yicha investitsiyalar hajmi	1- bosqich Qimmatlashishni hisobga olgan holda hajmni dastlabki hisobi (qimmatlashish indeksi 1,2 marta)	2- bosqich Choraklik kuzatuvlarni (kb kuzatuv) hisobga olgan holda tuzatishlar	3- bosqich 1- ID choraklik hisobotini hisobga olgan holda tuzatishlar (xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni)	Baholangan hajm barcha tarkiblar bo'yicha taqsimlanadi
A	1	2	3 (gr2 /4 x 1,2)	4	5	6
Kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy kapitalga investitsiyalari - jami	100	10000	3000	3100	3110	3110,0
shu jumladan, texnologik tuzilishi bo'yicha:						
qurilish-montaj ishlari	55,4	X	X	X	X	1722,9
mashina, jihozlar, asbob-uskunalar	33,5	X	X	X	X	1041,9
boshqa xarajatlar	11,1	X	X	X	X	345,2
shu jumladan, takror ishlab chiqarish bo'yicha tuzilishi:						
yangi qurilish	44,4	X	X	X	X	1380,8
kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiyalash	36,7	X	X	X	X	1141,4
boshqa yo'nalishlar	18,9	X	X	X	X	587,8

**2021- yilning yanvar-mart holatiga asosiy kapitalga investitsiyalarning
fizik hajmi indeksini hisoblash jadvali**

Shartli namuna

Satr raqami	Ko‘rsatkichlar nomi	2021- yil hisobot davri, joriy narxlarda, ming so‘m	O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan investitsiyalarning indeks deflyatori (martada)	2021- yil hisobot davri, o‘tgan yil narxlarida, ming so‘m	2020- yil hisobot davri, joriy narxlarda, ming so‘m	O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan investitsiyalarning fizik hajmi indeksi, %
A	B	1	2	3	4	5
1.	Asosiy kapitalga investitsiyalar jami, satrlar (2+10)	300774	1,120 (300774 / 268515)	268515	241395	111,2
2.	Rasmiy sektor, satrlar (3+5+8+9)	224106	1,126 (224106 /	199028	182615	109,0
3.	Yirik korxona va tashkilotlar	108424	1,126	96291	92321	104,3
4.	Kichik biznes, satrlar (5+8+10)	184429	1,116 (184429 /	165190	142716	115,7
5.	Kichik korxona va mikrofirmalar, satrlar (6+7)	97026	1,126	86169	75790	113,7
6.	Kichik korxonalar	52006	1,126	46187	37951	121,7
7.	Mikrofirmalar	45020	1,126	39982	37839	105,7
8.	Fermer xo‘jaliklari	10735	1,126	9534	8146	115,4
9.	Notijorat tashkilotlar	7921	1,126	7035	6358	109,1
10.	Uy xo‘jaliklari, satrlar (11+12)	76668	1,103 (76668 / 69487)	69487	58780	118,2
11.	yakka tartibdagi uy-joy qurilishi	46457	1,065	43622	40278	108,3
12.	jismoniy shaxslar tomonidan qurilgan noturar joylar	30211	1,168	25865	18502	139,8
Yuridik shaxslar uchun indeks- deflyatori		1,126				
YaTUVQ bo‘yicha indeks - deflyatori		1,065				
Jismoniy shaxslar tomonidan qurilayotgan noturar joy obyektlari bo‘yicha indeks deflyatori		1,168				